

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**2024 1-SON**  
ILOVA TOPLAM: GEOGRAFIYA

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

## ILOVA TO'PLAM: GEOGRAFIYA

---

### A.A.Xamidov

Geoekologik muammolar va ularning yechimiga oid kontseptsiyalar (Farg'ona vodiysi misolida) ..... 263

### Z.X.Madaminov, M.R.Mahammadova

Iste'molni taddiq etish va oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash salohiyatini baholash metodlari..... 268

### M.N.Xabibullayeva

Andijon viloyati ma'muriy tumanlari va markazlarining toponomik taxlili..... 272

### K.K.Uzakbaev

Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisining joylashuv tizimi xizmat ko'rsatish sohalari hududiy rivojlanishining omili sifatida..... 280

### F.N.Alimjanov

Global iqlim o'zgarishi sharoitida talabalarni ekologik faolligini oshirishni pedagogik omillari...288

### S.M.O'ktamova

Shohimardonsov daryo havzasi antropogen landshaftlaridagi geoekologik holat va oqibatlarini baholash masalalari ..... 292

### Sh.Sh.No'monov, M.A.Badalova

Hududlarni barqaror rivojlantirishda yerdan foydalanishning o'rni..... 297

### J.J.Mamatisakov

Bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarini o'quvchilarda geologik ko'nikmalarni shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari ..... 303

### B.S.Tojidinov

Yer resurslaridan foydalanish samaradorligini baholash usullari ..... 306

### N.A.Fattoxov, S.T.Sobirova

Antropogen omilning shaharlar geoekologik vaziyatiga ta'siri (Farg'ona-Marg'ilon aglomeratsiyasi misolida) ..... 312

**BO'LAJAK GEOGRAFIYA FANI O'QITUVCHILARINI O'QUVCHILARDA GEOLOGIK  
KO'NIKMLARINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI**

**БУДУЩИЙ УЧИТЕЛЬ ГЕОГРАФИИ ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ  
ФОРМИРОВАНИЯ ГЕОЛОГИЧЕСКИХ НАВЫКОВ У УЧАЩИХСЯ**

**PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF THE FORMATION OF  
GEOLOGICAL SKILLS IN TEACHERS OF THE FUTURE GEOGRAPHY**

**Mamatisakov Jaxongirmirzo Jamoliddin o'g'li<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarini o'quvchilarda geologik bilimlarni rivojlantirishning psixologik-pedagogik jihatlari tahlil qilingan. Bunda asosan geologik ma'lumotlarni o'z ichiga olgan tabiiy geografiyanı o'rganayotgan talabalar o'smirlik yosh guruhiaga mansub bo'lib bu yosh yuqori faoliyat, amaliy harakatlar uchun kuchli xoxishi bilan boshqa yosh toifalaridan ajralib turadi. Psixologlarning asarlarida ta'kidlanishicha, ushbu yoshdagi talabalar yuqori tadqiqot faoliyatiga ega bo'lib o'z faoliyatini mustaqil tartibga solishga tayyor bo'lishadi. Ushbu yosh doirasida maktab o'quvchilarida tabiatni o'rganishga qiziqish ortishi, ular bajonidil sayrlarda, ekskursiyalarda qatnashishlari, tajribalar o'tkazishga bo'lgan xoxishlari katta bo'ladi. Ushbu davrda tadqiqot va amaliy ishlarni tashkil etishga, shuningdek o'yin faoliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish geologik bilimlarni shakllantirishda yaxshi samara beradi.*

**Аннотация**

В данной статье анализируются психолого-педагогические аспекты развития геологических знаний у учащихся будущих учителей географии. При этом студенты, изучающие естественную географию, содержащую в основном геологические данные, относятся к подростковой возрастной группе. Этот возраст отличается от других возрастных категорий высокой активностью, сильным желанием к практическим действиям. В работах психологов отмечается, что учащиеся этого возраста, обладая высокой исследовательской активностью, готовы самостоятельно регулировать свою деятельность. В рамках этого возраста у школьников возрастает интерес к изучению природы, они охотно участвуют в прогулках, экскурсиях, проявляют большое желание проводить опыты. Особое внимание в этот период уделяется организации исследовательской и практической работы, а также развитию игровой деятельности, что хорошо сказывается на формировании геологических знаний.

**Abstract**

*This article analyzes the psychological and pedagogical aspects of the development of geological knowledge in students of future teachers of geography. In this, students studying natural geography, which mainly includes geological data, belong to the teenage age group, this age is distinguished from other age categories by high activity, strong envy for practical actions. In the works of psychologists, it is noted that students of this age, having a high research activity, are ready to independently organize their activities. Within this age, schoolchildren will have an increased interest in the study of nature, they willingly take part in walks, excursions, their desire to conduct experiments will be great. During this period, special attention to the organization of research and practical work, as well as the development of gaming activities, has a good effect on the formation of geological knowledge.*

**Kalit so'zlar:** ekskursiya, tizimli yondashuv, foydali qazilmalar, geologik jarayonlar, geologik bilim, pedagogik mahorat.

**Ключевые слова:** экскурсия, системный подход, полезные ископаемые, геологические процессы, геологические знания, педагогическое мастерство.

**Key words:** excursion, systematic approach, minerals, geological processes, geological knowledge, pedagogical skills.

**KIRISH**

Geologiya - bu yer haqidagi umumiyligi ta'limotning birlashtirilgan yadrosi xisoblanib insonlarga sayyoramizning tuzilishi va rivojlanishi to'g'risida obyektiv g'oyalarni, mineral resurslar to'g'risida ma'lumotlarni olishga imkon beradi. Geologik imkoniyatlardan foydalanmasdan zamonaviy ishlab chiqarishni tashkil etish mumkin emas. Shuningdek, ekologik xavfsiz hayotni belgilaydigan sayyoraviy, mintaqaviy va mahalliy geologik jarayonlar tushunish, tabiatni boshqarish, texnik loyihalarni amalga oshirish, geologik ko'nikmalarning aksariyati ekologik va iqtisodiy tushunchalarni shakllantirish uchun asosdir. Shuning uchun geologik ko'nikmalarni shakllantirish faqat tizim orqali amalga oshirish mumkin. Geologik ko'nikmalarni shakllantirish metodologiyasini yaratish uchun didaktik vazifalarning butun majmuasini hal qilish kerak. Buning uchun geologik ko'nikmalarni shakllantirishning asosiy tamoyillari va shartlarini aniqlash kerak.

Ushbu yo'nalishda ishlash tajribasidan xulosa qilish mumkinki, tizimli yondashuv geologik savodxonlik darajasini oshirishga imkon beradi.

Tabiiy geografiyani o'rganishda geologik malakalarning roli juda katta va xilma-xildir. Ular o'rganilishi lozim bo'lgan maktab geografiyasi mazmunining tarkibiy qismi sifatida qaralishi lozim. Shakllanayotgan geologik ko'nikmalar geografik bilimlarni o'zlashtirish vositasiga aylanadi va mustaqil bilim faoliyatini amalgalashadi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Metodik, pedagogik, psixologik adabiyotlarda mahorat va mahorat tushunchasining yagona talqini, ularning bir-biriga mosligi yo'q. Bu tushunchalarni turli olimlar tomonidan aniqlashga bir necha yondashuvlar mavjud. Mahorat faoliyatda namoyon bo'ladi. Pedagogika fanida pedagogik mahorat tushunchasining turli ta'riflari mavjud: pedagogik mahorat pedagogik faoliyatning yuqori darajasi bo'lib, u pedagogning belgilangan vaqt ichida optimal natijalarga erisha olishida namoyon bo'ladi.

Pedagogik mahorat – pedagogik jarayonni bilish, uni tashkil eta olish, harakatga keltira olish, pedagogik jarayonning yuqori samaradorligini belgilovchi shaxsnинг ish sifati va xususiyatlari sintezi xisoblanadi [1]. "Pedagogik mahorat" - o'qituvchilaming shaxsiy va kasbiy (bilimdonligi, zukkoligi, fidoyiligi, ijodkorligi, qobiliyati va hokazo.) fazilatlarini belgilovchi xususiyat bo'lib, o'qituvchilaming ta'lim-tarbiyaviy faoliyatida yuqori darajaga erishishini, kasbiy mahoratini doimiy takomillashtirib borish imkoniyatini ta'minlovchi faoliyatdir [2].

Rossiyalik olimlardan N.F.Talzina fikricha, mahorat-bu muayyan munosabatlar bilan bir-biri bilan bog'liq va muayyan vazifalarni hal qilishga qaratilgan inson harakatlari tizimidir [3].

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, "pedagogik mahorat" tushunchasiga quyidagi tarzda umumlashgan ta'rif berish mumkin: Pedagogik mahorat - bu o'quv jarayonining barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo'naltirish, talabalarda (o'quvchilarda) dunyoqarash qobiliyatni shakllantirish, jamiyat uchun zarur bo'lgan faoliyatga moyillik uyg'otishdir.

Geografiya fanini tabiatan faol, amaliy harakatlarga intiluvchi, sayr qilish, tabiatga qiziquvchi o'quvchilar ko'proq o'rganadi. Binobarin, geologiyani o'qitish fanning o'ziga xos xususiyatlaridan, maktab o'quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib, o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirishda katta imkoniyatlarga ega.

Geologik ko'nikmalarni shakllantirish jarayonida talabalar turli xil faoliyat turlariga jalb qilinadi. Masalan: kognitiv, amaliy, tadqiqot va boshqalar. Geografiya fanining o'ziga xos xususiyatlari geografik ta'limning faoliyat tarkibiy qismini kuchaytirishga imkon beradi. Bolaning shaxsiga pedagogik ta'sirni tashkil etishni strategik rejalashtirishda uning yosh yosh xususiyatlari muhim ahamiyatga ega [4]. Geologik ma'lumotlarni o'z ichiga oлgan tabiiy geografiyani o'rganayotgan talabalar o'smirlilik yosh guruhiga kiradi. Bu yosh yuqori faoliylik, amaliy harakatlar kuchli xoxishi bilan boshqa yosh toifalaridan ajralib turadi. Psixologlarning asarlarida ta'kidlanishicha, ushbu yoshdagi talabalar yuqori tadqiqot faoliyatiga ega bo'lib o'z faoliyatini mustaqil tartibga solishga tayyor bo'lishadi. Ushbu yosh doirasida mакtab o'quvchilarida tabiatni o'rganishga qiziqish ortadi, ular bajonidil sayrlarda, ekskursiyalarda qatnashadilar, tajribalar o'tkazadilar. Ushbu davrda tadqiqot va amaliy ishlarni tashkil etishga, shuningdek o'zin faoliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish mumkin. Shuningdek, tabiiy geografiyani o'rganayotgan o'quvchilarning yoshi amaliy va mustaqil faoliyatga asoslangan ko'nikmalarni shakllantirish uchun juda mos tushadi. O'smirlarning bu xususiyatlari mакtab geografiya darslarida geologik ko'nikmalarni shakllantirishda hisobga olinishi kerak.

### **NATIJALAR VA MUHOKAMA**

O'quvchilar tomonidan geologik ko'nikmalarni shakllantirish muammosini har tomonlama hal etishda ularning faoliyatini rag'batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarni o'qishga rag'batlantirishning asosiy omillari motivasiya va kognitiv qiziqishdir. A.N.Leontev motivni munosabatlarning rivojlanishi va o'zgarishi uchun asos deb hisoblaydi. Maktab o'quvchilarining faoliyati ma'lum motivlar bilan asoslanadi va ular asosida munosabatlar rivojlanadi.

Geografiyaning mazmuni bilim va boshqa ehtiyojar, o'quv motivlarini uyg'otishning obyektiv imkoniyatlarini o'z ichiga oladi. Ayniqsa tabiiy geografiya kursi mакtab o'quvchilarining bilim faoliyatini rag'batlantirish uchun boy imkoniyatlarga ega, chunki u o'z mazmunida dunyoning rang-barang tasviri, shu jumladan Sayyora tabiatini, yerning turli qismlarida inson iqtisodiy faoliyatini ochib beradi. Geologik bilimlarni o'rganishda halokatli zilzilalarning sabablarini o'rganish, yerning

## MAXSUS SON

tarixi va rivojlanishini tahlil qilish, minerallar va tog' jinslarining xilma-xilligini tushunishga yordam beradi [5].

Kognitiv qiziqish va uning talaba faoliyati va shaxsiga ta'siri psixologik va pedagogik adabiyotlarda shaxsning barqarorligi sifatida keng tarqalgan. Ushbu asarlarda kognitiv qiziqishning ta'siri juda noaniq ekanligi ta'kidlangan: u motiv va o'rganish vositasi sifatida ishlaydi. Kognitiv qiziqishning shakllanishi va rivojlanishi faoliyat davomida sodir bo'ladi. Kognitiv qiziqish faoliyatning o'zini faollashtiradi. Shuning uchun ta'lif faoliyati ushbu faol holatga olib keladigan tarzda tashkil etilishi kerak. Talabalarni faollashtirishda katta imkoniyatlar tajribalar, amaliy ishlari, ekskursiyalar va boshqa ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishdir. O'quvchilarning bilish faoliyatining rivojlanishi o'qituvchining o'quvchilarga aqliy harakatlarning oqilona usullarini (tahlil, umumlashtirish) va amaliy faoliyatni (xaritalarni o'qish va taqqoslash, diagrammalarni tahlil qilish va boshqalarni) qanchalik o'rgata olganligiga bog'liq. Geologik ko'nikmalarni shakllantirish jarayonida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish shakllari ham motiv bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ayniqsa tabiiy geografiyanı o'qitish amaliyotida konferensiylar, seminarlar va ekskursiyalar katta ahamiyatga ega.

Geologik malakalarni shakllantirish xususiyatlaridan biri ekskursiyalarni (joylarda amaliy ishlarni) majburiy o'tkazishdir. Geologik ekskursiyalar ta'lif jarayonining ajralmas qismidir. Talabalar o'zlarining xulq-atvori davomida o'z mintaqalarining geologik tuzilishining xususiyatlariga duch kelishadi, ular turli xil geologik hodisalar, relef shakllari bilan tanishadilar, yerning ichki qismini shakllantirish tarixini tushunishni o'rganadilar.

Geologik ko'nikmalarni shakllantirishda maktab o'quvchilarining turli xil geografik ma'lumot manbalari: xaritalar, aerokosmik tasvirlar, tarqatma materiallar, darslik va o'quv qo'llanmalari bilan o'quv faoliyatini tashkil etish muhim rol o'ynaydi.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda bo'lajak o'qituvchilarning o'quvchilarda geologik bilimlari tizimini shakllantirish va rivojlanishda tizimli yondashuvga amal qilish yaxshi samara beradi. Ilmiy bilimlarning har qanday to'plamini inson tomonidan o'zlashtirilishining ko'rsatkichi ularning izchilligidir. Faqat izchil, tizimli bilim va ko'nikmalar o'rganilayotgan fanning g'oyalari va qonuniyatlarini o'zlashtirish uchun asos bo'ladi. Faqat tizimli geologik bilimlar talabalar tomonidan yerning rivojlanishi va evolyutsiyasi qonuniyatlarini tushunish va o'zlashtirishni, tabiiy komplekslarning rivojlanishi va shakllanishida litosfera komponentining o'rni va rolini, yer osti boyligining inson hayotidagi ahamiyatini, yer osti boyliklaridan oqilona foydalanish tamoyillarini shakllantirishni ta'minlaydi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Азизхужаева Н.Н. Укитувчи тайёрлашнинг педагогик технологияси. - Т.: ТДПУ, 2000. - 52 б
2. Хайдарова О. Педагогик касбга тайёрлик самараси. // Халқ таълими. — Т., 2004. - №2. - Б.31-33.Талызина Н.Ф. Управление процессом усвоения знаний. - М: МГУ, 1975.-274 с.
3. Талызина Н.Ф. Управление процессом усвоения знаний. - М: МГУ, 1975.-274 с.
4. Richard J. H. Fundamentals of Geomorphology. Second Edition. London and New York. Routledge. 2011. – 466.
5. Павлинов В.Н., Михайлов А.Э. Пособие к лабораторным занятиям по общей геологии. - М.: Изв-во «Недра», 1973.